



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

IMLO BUXORIY SHE'RIYATIDA INSON VA RUHIYAT MANZARALARI

Bekova Nazzora Jo'rayevna

BuxDU O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası professori, f.f.d. (DSc)

Komilova Zebiniso Botir qizi

BuxDU "Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotining muhim namunalaridan biri bo'lgan "Devon Imloyi Buxoriy" asarining mazmuni, adabiy xususiyatlari va ma'naviy ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan diniy-axloqiy va falsafiy g'oyalar, ilm va ma'rifatning qadri, tasavvufiy qarashlar hamda ularning bugungi kun uchun dolzarbligi yoritiladi. Shuningdek, asarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va adabiyotshunoslikdagi ilmiy ahamiyati ham alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar Devon Imloyi Buxoriy, mumtoz adabiyot, tasavvuf, ilm, ma'naviyat, axloq, badiiy san'at, Sharqshunoslik.

Kirish O'zbekiston mumtoz adabiy merosi Sharq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Unda diniy, axloqiy va falsafiy g'oyalar mujassam bo'lib, asrlar davomida xalq ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qilib kelgan. Shunday bebaho durdonalardan biri bu — "Devon Imloyi Buxoriy"dir. Mazkur asar Alhoda nashriyoti tomonidan chop etilgan bo'lib, uning tayyorlanishida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti mutaxassislari bevosita ishtirok etishgan. Qo'lyozmalar asosida tiklangan ushbu nashr nafaqat adabiyotshunoslar, balki tarixchi va ma'naviyatshunoslar uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Bugungi kunda milliy merosni o'rganish, uni yoshlarga yetkazish va adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini kengaytirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan "Devon Imloyi Buxoriy"ni tadqiq etish nafaqat tarixiy zarurat, balki bugungi kun uchun ham muhim ilmiy vazifadir.

Asarning mazmuni "Devon Imloyi Buxoriy" tarkibida diniy-ma'rifiy, tasavvufiy, axloqiy va falsafiy ruhda ko'plab she'rlar jamlangan. Asarda Allohga muhabbat, ilmning ahamiyati, sabr-toqat, halollik, dunyoga haddan tashqari berilmaslik kabi mavzular keng yoritiladi. Bunga misol tariqasida quyidagi misrani keltirishimiz mumkin.

Forscha:

Ey mah-e hosn, posht-e nazar kon be su-ye ma

Zahed shekaste bad do dastat kea z hasad

Bostan-e ons, banda mag'ir az gonah

'Efvat makon, made be nowbahar sabu-ye ma

Ma'nosi:

Ey go'zallik oyidek yuzli, biz tomonga nigoh tashla,

Ey zohid, hasad sabab qo'llarin sinib kestin.

Ey mehr bog'i, guhoh uchun qo'limni ushlama,

Poklik qilmaysanmi, bahorning qadahini bizga bermaysanmi.

Ushbu misrada shoir guhoh qilishdan qaytish, hasad qilmaslik, doimo pok bo'lish kabi fazilatlarni ilgari surgan. Shoirning asosiy maqsadi insonni ruhiy poklanishga, komillikka va ma'naviy yuksalishga chorlashdir. She'rlarda dunyo boyliklari va mol-mulkning o'tkinchiligiga urg'u berilib, haqiqiy baxt faqat ilm, diyonat va ruhiy tozalikda ekanligi uqtiriladi. Asarda ilmga berilgan yuksak e'tibor ham alohida o'rin tutadi. Shoir ilmni insonning qalb ko'zgusi deb biladi. Ilm orqali inson nafaqat dunyoviy, balki oxirat saodatiga ham erisha oladi. Shu bois devon o'z davrida ilm ahliga katta ta'sir ko'rsatgan. Adabiy xususiyatlari "Devon Imloyi

Buxoriy” o‘z davrining yuksak badiiy namunalaridan biridir. She’rlarda tashbeh, istiora, tajnis, tanosib kabi badiiy san’atlar keng qo‘llangan. Masalan:

Forscha

Doshman bovad kasi ke namayad dava-yi ma,
Juz ‘ishqi dust, kist shavad rahnama-yi ma?
Az ghayr khar sar ke guzarad ba pa-yi ma?
Ghayr az riza-yi dust che bashad riza-yi ma?
Bashad hazar martaba kamtar baqa-yi ma,
Az may shavad gushada dil-i bi-nava-yi ma.

Ma’nosi:

Bizning dardimizga davo ko‘rsatgan kishi-dushman bo‘lur,
Do‘stning ishqidan boshqa kim bizga yo‘l ko‘rsatadi?
Begonadan tikan va ranjdan boshqa narsa oyog‘imiz ostiga tusharmikan?
Do‘stning rizosidan boshqa narsa biz uchun rozi bo‘lishi mumkinmi?
Bizning umrimiz ming marotaba oz bo‘lsa ham,
May(ishq sharobi) bilan g‘amgin ko‘nglimiz ochilib, kengayadi.

Misralarda ko‘pincha Qur‘on oyatlari va hadislarining ma‘nolari badiiy tarzda ifodalangan bo‘lib, ular asarga diniy-falsafiy ruh bag‘ishlaydi.

Forscha:

Ki bud tan parvarīdan pesha-yi atvor-i mā
Boshad az afghān-i bulbul rawnaq-i gulzor-i mā
Az tama’ parhez mī-so’zad dil-i bīmār-i mā
Pur bud az husn-i ān mah kūcha-yi bozār-i mā
Dar guzar az fikr-i ta’mīr-i fano, memār-i mā
Maslahat rā xanda mī-āyad ba īn kirdār-i mā

Tarjimasi:

Tanparastlik — bizning yo‘limiz emas,
Bulbul nolasidan yashnar bog‘imiz, nafas.
Tama’ni tark etish — dil dardiga davo,
Go‘zal mah husnidan to‘lgan bizning ko‘chamiz.
Biz — foniyl dunyo ta‘miridan o‘tgan me‘morlar,
Bizning bu yo‘limizdan maslahat ham kuladi, azizlar.

Tahlil:

Bu baytlarda shoir nafsni tiyish, sabr, va ruhiy yuksalish g‘oyasini kuylaydi. “Tanparastlik” — moddiylik, nafs quliga aylanishni bildiradi; shoir esa bunga qarshi ruhiy poklikni qo‘yadi.

Bulbul nolasining “gulzarga fayz berishi” — inson qalbidagi dard va muhabbatning yaratuvchan kuchini ramziy ifoda etadi.

Tama’dan voz kechgan “dil bemor” — Alloh ishqida kuyar qalbdir.

Shoir dunyoning o‘tkinchi ta‘miridan voz kechib, fanoga — o‘zligini yo‘qotish orqali haqiqiy komillikka intiladi. Bu — naqshbandiyona tafakkur, tasavvufning asosiy ma‘nosi.

Giryayi shām o sahar az kaf made dar rāh-i ‘ishq
Muhtasib oftad ba pāy-i kham, kharābātī shavad
Jon fido kardan nishon-i himmat-i mardān ke hast
Az firāq shu‘la khūyī ān qadar kāhīda‘im
Boda-nūshī sāz, amlō az malāmat gham makhur
Shu‘la-yi xūbī ān qadar mā rā basūkht o barīda‘im

Tabdili:

Ishq yo‘lida kecha-yu kunduz yig‘lashni qo‘yma,
Bir kun muhtasib ham mayxonaga yiqilar, xarobotlik bo‘lar.
Jonni fido etish — mardlikning eng oliy belgisi,

Ayriliq alangasi bizni shunchalar so'ndirdi, yo'qotdi.
May ich, ey do'st, malomatdan qo'rqma, g'am yema,
Go'zalning shu'lasidan biz kuydik, tozalangandek bo'ldik.

Tahlil:

Bu she'r ishq, sadoqat va fano (yo'q bo'lish) g'oyalariga bag'ishlangan.

Shoir kecha-kunduz yig'lashni — ya'ni Allohni sevish yo'lida sabr bilan iztirob chekishni — poklanish vositasi deb biladi. "Muhtasib" — riyokor din egasi ramzidir; u ham oxirida ishq mastligiga taslim bo'ladi.

Jonni fido etish — sufiyona mardlik belgisi. Bu "nafsni qurbon qilish"dir.

May ichish — tasavvufda "ilohiy mastlik", ruhiy ozodlikni bildiradi.

Shoir "go'zalning shu'lasidan kuyish"ni ma'naviy tozalanish, Alloh ishqida yo'q bo'lish deb talqin qiladi.

Shoirning ijodi Alisher Navoiy, Hofiz, Sa'diy kabi mumtoz shoirlarning an'analari bilan uyg'unlashib ketadi. Ammo u bu g'oyalarni o'z davrining ijtimoiy hayotiga moslashtirib, milliy adabiy muhitda qayta talqin qilgan. Devonning yana bir o'ziga xos jihati uning tilida namoyon bo'ladi. Fors-tojik adabiyotiga mansub bo'lishiga qaramay, unda turkiy xalqlarga xos iboralar, ma'naviy qadriyatlar ham sezilib turadi. Bu esa asarning keng kitobxonlar ommasiga yaqinlashuviga xizmat qilgan.

Ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati. Bugungi kunda "Devon Imloyi Buxoriy"ni o'rganish yoshlar tarbiyasi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki unda ilgari surilgan g'oyalar — halollik, sabr-toqat, ilmga chanqoqlik, dunyo lazzatlariga berilmaslik va Allohga muhabbat — har bir inson uchun umumbashariy qadriyat hisoblanadi. Asar yoshlarni milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni vatanparvar, diyonatli va komil inson sifatida shakllantirishda katta o'rin tutadi. Devon nafaqat adabiy meros, balki ma'naviy-ma'rifiy qo'llanma vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlarning ongini turli yot g'oyalardan asrashda, ularni milliy o'zlik va madaniyatga sodiq etib tarbiyalashda bunday mumtoz asarlarning o'rni beqiyosdir.

Xulosa "Devon Imloyi Buxoriy" Sharq mumtoz adabiyotining bebaho yodgorliklaridan biridir. U o'zida diniy, axloqiy va falsafiy g'oyalarni mujassam etib, nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, "Devon Imloyi Buxoriy" milliy adabiy merosimizning yorqin namunasi bo'lib, u nafaqat o'tmishni anglash, balki bugungi va kelajak avlodni ma'naviy tarbiyalashda ham beqiyos ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Devon Imloyi Buxoriy. – Eron: Alhoda nashriyoti, yil.
2. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari fondi.
3. Karimov, I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Sharq mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2012